



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
_____ *ning*

20__-20__-o'quv yili 1-4-sinflar
uchun Tabiiy (Science) fanidan
“TABIATNI O‘RGANAMIZ” NOMLI

TO‘GARAK
HUJJATLARI

To'garak a'zolari haqida ma'lumot

<i>Nº</i>	Familiya ismi va sharifi	Tug'ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to'liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Tabiatni o‘rganamiz” to‘garagining
ISH REJASI

T.r.	Mavzu	Soat
1	Atrofimizdagi olam	1
2	Tabiatdagi jism va moddalar	1
3	Ob-havo	1
4	Yil f asllari	1
5	Kuz ne`matlari	1
6	Ijtimoiy foydali mehnat	1
7	Ijtimoiy foydali mehnat	1
8	Kuzda hasharotlar hayoti	1
9	O'lkamizda uchraydigan qushlar	1
10	O'simliklarning qishga tayyorlanishi	1
11	Gerbariy tayyorlash (Maktab hovlisida amaliy ish)	1
12	Kasblar haqida	1
13	Yer sayyora	1
14	Yerning harakatlari	1
15	Vaqt — o‘lchov birligi	1
16	Yer yuzasining tuzilishi	1
17	Suv — hayot manbayi	1
18	Suv — hayot manbayi	1
19	Qish	1
20	Qishki mehnat	1
21	Uy hayvonlarning qishdagi hayoti	1
22	Yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti	1
23	Bahorda o‘simliklar hayoti	1
24	O'simliklar qanday ko‘paytiriladi?	1
25	Bahorda kishilar mehnati	1
26	Bahorda kishilar mehnati	1
27	Navro‘z — yangi kun	1
28	Bahorda hasharotlar hayoti	1
29	Bahorda o‘lkamizga qushlarning qaytib kelishi	1
30	O'lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar	1
31	Inson va tabiat	1
32	Shahar va qishloq	1
33	Shahar va qishloq	1
34	Yoz — o‘tadi soz. Yakuniy dars	1

To‘garak rahbari: _____

1- MASHG‘ULOT MAVZU: ATROFIMIZDAGI OLAM

Darsning maqsadi.ta`limiy: O‘quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, atrofda o‘simlik va hayvonot dunyosi namunalari bilan tanishtirish, ularni asrab-avaylashga, himoya qilishga o‘rgatish. **T.k.2** televizor, radio va boshqa manbalardan tabiat va undagi hodisalarga oid zarur ma‘lumotlardan foydalana lish, o‘ziga zarur ma‘lumotlarni o‘zlashtira olish.


Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish. **T.k.1** mavzuni ravon gapirib berish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozlanishi. Tabiatning turli fasllardagi manzaralari, o‘simlik va hayvonlarning rasmlari, kishilarning mehnat jarayoni, ular tomonidan yaratilgan buyumlarning rangli suratlarini.

Darsning borishi.Tashkiliy qism. O‘quvchilar uch guruhga bo‘linib o‘tiradilar.

Tarmoqlash usuli orqali 1- sinfda o‘tilgan mavzular takrorlanadi.



«Klaster» usulidan foydalanish ham mumkin. Atrofimizdagi olam nima degan savolga bolalar javob beradi. O‘qituvchi strelkalar to‘g‘risiga yoza boshlaydi.

Yangi mavzuni bayon etish. O‘tiladigan mavzuni bayon etishdan avval o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinib, ularning diqqatini jamlash, darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish:

1. Atrofimizdagi olam deganda nimani tushunasiz?
2. Atrofimizdagi olamni qaysi sezgi a'zolarimiz orqali kuzatamiz?
3. Ertalab uyqudan uyg‘onganingizda ob-havo qanday edi?
4. Oila a'zolaringiz nima ish bilan mashg‘ul bo‘ldilar?

O‘qituvchi shu kabi savollar bilan yangi mavzuni boshlaydi.

Darsga jiddiy tayyorgarlik ko‘rish lozim. Atrof-muhitdagi mavjud narsalar qancha qiziqarli tushuntirilsa, ularning sir-asrorlari atroflicha tanishtirilsa, bolalarni tabiatga shuncha ko‘p oshno qilishga erishgan bo‘lamiz. Yangi mavzuni iloji boricha sayr, ekskursiya, amaliy ishlar bilan o‘tish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda o‘quvchilarga odamning sezgi a'zolari: ko‘z, quloq, burun, til, terming xususiyatlari tushuntirib o‘tiladi. Shu a'zolar orqali tabiatni ko‘rish, turli ovozlarni eshitish, hidlarni sezish, ta'mni bilish, issiq-sovuqni his qilish mumkinligi erinmay uqtiriladi. Jonli va jonsiz tabiatdagi o‘zgarishlarni kuzatish jarayonida barcha sezgi a'zolarining xususiyatlari katta ekanligi hisobga olingan holda savol va topshiriqlar tuziladi. Dars davomida muammoli holatlar vujudga keltirilib, didaktik usullar qo‘llaniladi. Soddaroq bo‘lsa-da, umumlashtirish, taqqoslash, muhimini ajratish, munosabat o‘rnatish, xulosa chiqarish kabi vazifalarni bajarishga harakat qilinadi.

O‘simliklar, qushlar, hasharotlar, uy hayvonlari, kishilarning dala, bog‘, o‘rmon, tomorqadagi mehnat faoliyatlari, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar kuzatilib, «Ish daftari»ga qayd qilib boriladi.

Atama va tushunchalar: inson, tabiat, ob-havo, o'simlik, hayvon, sezgi a'zolari, «Ish daftari».

Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun ularga quyidagi savollar berish

1. Qanday sezgi a'zolarini bilasiz?
2. Bugun uydan maktabga kelguncha nimalarni kuzatdingiz?
3. Sizga qaysi kuzatuv yoqdi?

O‘quvchilar bilimini baholash.

Uyga vazifa. «Ish daftari»ga har kuni kuzatuvlaringizni yozib boring.

2- MASHG‘ULOT.MAVZU: TABIATDAGI JISM VA MODDALAR

Darsning maqsadi.ta‘limiy:O‘quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish, ularga, avvalo, modda va jism nima ekanligi, ular qanday paydo bo‘lishi yoki yaratilishi haqida tushunchalar berish. Modda va jismlarning shakli, ularning o‘zgarishi, inson uchun foydali va ahamiyatli tomonlarini tushuntirish. **T.k.2** televizor, radio va boshqa manbalardan tabiat va undagi hodisalarga oid zarur ma‘lumotlardan foydalana lish, o‘ziga zarur ma‘lumotlarni o‘zlashtira olish. **T.k.6** maishiy texnika jihozlaridan foydalana olish, tejamkorlikka, ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

Tarbiyaviy:tabiatda uchraydigan foydali qazilmalar, suvning har xil holati, suvni, ayniqsa, toza ichimlik suvlarini isrof va if los qilmaslik bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish. **T.k.1** mavzuni ravon gapirib berish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

Rivojlantiruvchi:ijodiy izlanish, bunyodkorlikni rivojlantirish. **F.k.1** tabiatda bo‘ladigan jarayonlarni, haroratning tun va kunduzi farq qilishini kuzatadi va aytadi oladi;

Darsning turi.Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozlanishi.Har xil moddalar, foydali qazilmalar namunalari, suv, tarozi, spirt lampasi, sham, stakan, olovga chidamli idish,

Darsning borishi.Salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.O‘tilgan mavzuni takrorlash.


Tashkiliy qism.

O‘tilgan mavzuni takrorlash.

Yangi mavzuni bayon etish. Yangi mavzuni boshlashga kirishishdan avval, o‘quvchilarga odatda-gidek, quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Suv qanday ko‘rinishga ega?
2. Atrofimizda nimalarni ko‘ryapsiz?
3. Kitob va ruchkaning og‘irligi tengmi?
4. Kitob jismmi yoki modda?

O‘quvchilarga tevarak-atrofdagi ko‘rib turgan barcha narsalarimiz modda va jismlardan iborat ekanligi, jismlarning biror-bir qat‘iy shakldaligi misollar bilan tushuntirib beriladi.




Masalan, parta, doska, bo‘r, kitob, ruchka, qalam va hokazolar.

Bu jismlarni odamlar yasaganligi, Quyosh, Oy, Yer va yulduzlar tabiiy jismlar ekanligi tushuntiriladi. Moddalardan jismlar, ya'ni temirdan tramvay izi, g‘ildiraklar, mashinalar yasalishi ko‘rgazmali qurollar orqali o‘quvchilarga yetkaziladi.

Tabiatda suvning uch xil: suyuq, qattiq va bug‘ holatda uchrashi tajriba olib borish bilan ko‘rsatiladi.

Suv qaynatilsa bug‘ holatiga, muzlatkichga qo‘yilsa muz (qattiq) holatga o‘tishini misollar bilan ko‘rsatish darsning samaradorligini oshiradi. Jism va moddalarning og‘irligi tarozida o‘lchanadi.

Suvning 3 xil holatdagi ko‘rinishi;



SUYUQ HOLATI

BUG‘ HOLATI;

MUZ HOLATI;

Tayanch so‘zlar:ob-havo, ob- havo belgilari,harorat, yog‘in, bulutlilik, termometr, daraja.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.1. Modda va jismlarga misol keltiring.2. Moddalar qanday holatlarda bo‘ladi?3. Atrofingizda qanday jismlarni ko‘ryapsiz?

Uyga vazifa. Uyda ota-onangiz yordamida suvning uch xil holatda bo‘lishini tajriba qilib ko‘ring. Tajriba natijalarini «Ish daftari»ga yoz

3- MASHG‘ULOT MAVZU: OB-HAVO

Darsning maqsadi.ta‘limiy: O‘quvchilarni mavzuga oid yangi atama va tushunchalar, tabiat fasllari, kuzda bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan tanishtirish, ularga ob-havo haqidato‘liq tushuncha berish va tabiat go‘zalliklariga oshno etish. **T.k.6** maishiy texnika jihozlaridan foydalana olish, tejamkorlikka, ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

Tarbiyaviy:— tabiatga muhabbat tarbiyasini shakllantirish,— kishilar mehnatini qadrlashga o‘rgatish.

T.k.1 mavzuni ravon gapirib berish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

Rivojlantiruvchi:—ijodiy izlanish, bunyodkorlikni rivojlantirish. **F.k.1** tabiatda bo‘ladigan jarayonlarni, haroratning tun va kunduzi farq qilishini kuzatadi va ayta oladi;

Darsning turi.Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozlanishi.Termometr, yomg‘ir o‘lchagich, Quyoshning turish holatini kuzatish uchun tayoqcha, ob-havoning turli holatdagi manzarasi tasvirlangan rasmlar.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism.Salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.O‘tilgan mavzuni takrorlash.

Yangi mavzuni bayon etish.

O‘tilajak yangi mavzuni bayon etishdan avval o‘quvchilarga ushbu savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Bugun ob-havo qanday?
2. Qanday ob-havo belgilarini bilasiz?
3. Sizga qaysi fasl yoqadi?

Havoning qisqa vaqtdagi holati ob-havo deyilishi, ob-havo tez-tez o‘zgarib turishi, kuz va bahor oylarida havo salqin bo‘lib, yomg‘ir ko‘p yog‘ishi, qishda qor yog‘ib sovuq bo‘lishi, yozda esa havoning isib ketishi xususiyatlari ochib beriladi.

Havo nima sababdan o‘zgaradi, yozda kunlar nega issiq yoki qishda nima uchun sovuq bo‘ladi kabi savollarga atroflicha javob berish, bu savollarga javob berishda o‘quvchilarni ham jalb qilish darsning samaradorligini oshirishini unutmang. Yilning to‘rt faslida, hatto kunning turli vaqtida havo harorati har xil bo‘lishini termometr yordamida aniqlab, o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin. Havo harorati shartli belgilar orqali yoziladi.Masalan, havo issiq bo‘lsa, +40°C, havo sovuq bo‘lsa, -10°C deb yozib qo‘yiladi.Dars o‘tilayotgan xonada havo harorati necha daraja issiq? Tashqaridachi, kabi savollar bilan mavzuning qiziqarli bo‘lishiga erishiladi.

Termometrlarning turlari bilan tanishtirish:



1-havo haroratini o‘lchaydigan :2-suv aroratini o‘lchaydigan3-kishilar haroratini o‘lchaydigan;

Tayanch so‘zlar:ob-havo, ob- havo belgilari,harorat, yog‘in, bulutlilik, termometr, daraja.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Dars yakunida o‘quvchilarning yangi mavzuni qanchalik o‘zlashtirganligini aniqlash maqsadida quyidagi savollar berib ko‘riladi:

1. Termometr bilan nima o‘lchanadi?
2. Ob-havo deganda nimani tushunasiz?
3. Termometrni issiq suvga botirsak nima bo‘ladi?

O‘quvchilar bilimini baholash.

Uyga vazifa. Har kuni havo haroratini o‘lchab, olingan natijani «Ish daftari»ga yozib boring. Oy oxirida havo haroratini qancha daraja isib yoki sovib ketganligini taqqoslashni o‘rganing.

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

4- MASHG‘ULOT. MAVZI: YIL FASLLARI

Darsning maqsadi.ta’limiy: O‘quvchilarni yangi atama va tushunchalar, tabiatda fasllar almashinishi, undagi o‘zgarishlar, fasllarning asosiy belgilari bilan tanishtirish, qushlar, hasharotlar ustida kuzatish ishlari olib borishga o‘rgatish, har bir faslning o‘zgacha tarovati borligini tushuntirish, go‘zallikni his etishga, uni asrab-avaylashga o‘rgatish. **T.k.5** o‘z o‘lkasi, uyi, mahallasi, maktabi, yashash joyini qadrlash; do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish.

Tarbiyaviy: tabiatga muhabbat tarbiyasini shakllantirish, kishilar mehnatini qadrlashga o‘rgatish, o‘quvchini mehnat dunyosi bilan tanishtirish; **T.k.1** mavzuni ravon gapirib berish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchida o‘yin jarayonida mehnat ko‘nikmalari elementlarini rivojlantirish; o‘quvchilarda yosh xususiyatlari va salomatligi holatini hisobga olgan holda qiziqishlarni shakllantirish; **F.k.1** o‘lkamizda uchraydigan hayvonlar va hasharotlar hayoti, qushlarning kuzdagi hayotini kuzatadi;

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozlanishi. Fasllar tasvirlangan plakatlar, rasmlar.

Atama va tushunchalar: yil, bahor, yoz, kuz, qish.

Darsning borishi.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish. O‘tilgan mavzuni takrorlash.

Yangi mavzuni bayon etish. O‘quvchilarning yangi mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Hozir qanday fasl?

2. Bir yilda nechta fasl almashinadi?

3. Fasllar nomini ayting.

4. Qaysi fasl haqida she'r bilasiz?

5. Sizga ko‘proq qaysi fasl yoqadi? Bir yil to‘rt fasldan iborat. Tabiatda fasllar almashinib turadi. Lekin hamma joyda ham emas. Bizning O‘zbekistonimizni jannatmakon yurt deb ta’riflashadi. Nima uchun? Bizda bir yilda to‘rt fasl to‘liq almashinib turishi, fasllarning o‘zgarishiga sabab, Yerning Quyosh atrofida aylanishi va buning natijasida Yerga Quyosh nurining ko‘p yoki kam miqdorda tushishi, Quyosh bo‘limganda Yer yuzi qorong‘i va sovuq bo‘lishi tushuntiriladi. Kuzda 23- sentabrda kun bilan tun teng (12 soat kun, 12 soat tun) bo‘lishi, qishda 22- dekabrda kun eng qisqa va tun eng uzun bo‘lishi, chunki Quyosh kech chiqib erta botishi o‘quvchilar ongiga atroflicha singdiriladi.

O‘tilayotgan mavzular o‘quvchilar xotirasida qo‘lishiga erishish maqsadida ular tutayotgan «Ish daftari» bilan tanishib borish, daftarga nimalarni yozib borayotganini ularning o‘ziga o‘qitish, tez-tez takrorlab turish va yangi ma’lumotlarni yozishlari ta’kidlab turiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni mas’uliyatli bo‘lishga, tabiatni kuzatishni o‘rganishga va atrof-muhit bilan jiddiy tanishib borishga undaydi.



Tarmoqlash usulidan foydalanib yil fasllarini takrorlab olibadi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Dars yakunida o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Fasllar nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?

2. Quyoshning bizga qanday ahamiyati bor?

3. Fasllarning almashinishiga nima sabab bo‘ladi?

O‘quvchilar bilimni baholash.

Uyga vazifa. Uyingiz derazasi tokchasiga tuvakdagi gulni qo‘ying. Gulning barglarini kuzating, keyinroq gulni aylantirib narigi tomonini Quyoshga qaratib qo‘ying. Nimalar ro‘y berganini aniqlagach, natijani «Ish daftari»ga yozing.

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Tabiiy fanidan boshlang'ich sinf o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng

yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga

joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.